



TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASI VA MUSTAQIL TA'LIM OLISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA PODKASTLARNING O'RNI

Kambarova D.I.

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Farg'ona filiali katta o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: podkast, internet, vositalar va yangi texnologiyalar, ta'lim jarayoni, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari, til o'rganish jarayoni, autentik material, talabalar.

Ключевые слова: подкаст, интернет, инструменты и новые технологии, учебный процесс, навыки самостоятельного обучения, процесс изучения языка, аутентичный материал, студенты.

Key words: подкаст, интернет, информационные средства и современные технологии, учебный процесс, навыки самообучения, процесс изучения языка, аутентичный материал, студенты.

Internet va zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi chet tilini o'rganishda yangi istiqbollarni ochmoqda. Bu texnologiyalar chet tilini o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishda yordam beradi, shuningdek, global muloqotni osonlashtiradi. Bugungi kunda maktab va universitet professor- o'qituvchilari zamonaviy vositalar va interaktiv texnologiyalardan faol foydalanmoqdalar. Ushbu vositalar va texnologiyalar ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishda yordam beradi. Masalan: Interaktiv Ta'lim Platformalari: Google Classroom, Moodle, va Microsoft Teams kabi platformalar ta'lim materiallarini boshqarish, talabalarga vazifalar berish, va online darslar o'tkazish imkonini beradi. Ushbu platformalar darslarni rejalashtirish va talabalarining ishlash jarayonini kuzatishda yordam beradi. Onlayn Resurslar va Kurslar: Khan Academy, Coursera, yedX kabi onlayn resurslar va MOOC (massive open online courses) platformalari orqali professorlar o'z darslarini kengroq auditoriyaga taqdim yetishlari mumkin. Bu platformalarda talabalar turli mavzular bo'yicha qo'shimcha materiallar va kurslardan foydalanishlari mumkin.

Podkastlar talabalarning faolligini oshiradigan va ularning mustaqil ta'limini rivojlantirishga hissa qo'shadigan zamonaviy interaktiv texnologiyalardan biridir.



Podkast texnologiyasidan foydalanish ko'p vaqt talab qilmaydi va turli mavzularni qamrab oladi, bu esa til o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi hamda talabalarning til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi. Podkastlar orqali talabalar chet tilida qiziqarli mavzularni tinglash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu, o'z navbatida, o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni oshirishi mumkin, chunki talabalar tilni o'rganish jarayonida ko'proq qiziqarli va yangi ma'lumotlar oladilar.

Podkastlar talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ular podkastlarni o'z vaqtida va o'zlarining qiziqishlariga mos ravishda tinglashlari mumkin. Bu, ularning o'zini- o'zi boshqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi va mustaqil ravishda o'rganishni qo'llab-quvvatlaydi. Podkastlarni tinglash orqali talabalar o'zlarining rivojlanishlarini nazorat qilishlari va qaysi sohalarida yaxshilanish kerakligini tushunishlari mumkin. Talabalar tinglab tushunish qobiliyatlarini yaxshilash va yangi so'zlarni o'rganish orqali so'z boylligini oshiradilar.

Podkastlar - bu MP3 pleerga osongina yuklab olinadigan va foydalanuvchi uchun qulay bo'lgan istalgan vaqtda tinglanishi mumkin bo'lgan epizodlar shaklida onlayn joylashtirilgan audio bloglar yoki dasturlar. Bular alohida fayllar yoki Internetda bitta manzilda chop etiladigan bunday fayllarning muntazam yangilanib turuvchi seriyasidir. Birinchi marta "podkasting" atamasini MTV telekanali boshlovchisi Adam Karri kiritgan, u ikki so'zni birlashtirgan: iPod - Apple (AQSh) portativ media pleyerlari seriyasining savdo belgisi va radioeshittirish - hamma joyda keng formatli eshittirish. Shunday qilib, "podkast" - bu audio yoki video ma'lumotlarni Internetda tarqatish usulidir [1]. Podkastlar podkastlar yoki videokastlarni ishlab chiqarish va taklif qilishni anglatadi.

Podkastlarning uch turi mavjud: 1) audio podkast; 2) video podkast; 3) Skrinkasting - bu odamlarning onlayn o'rganishini osonlashtirgan yangi hodisa.

Ingliz tilini o'qitish maqsadlariga yerishish uchun ta'lim podkastlari alohida e'tiborga loyiqdir. Ta'lim podkastlari haqida gapirganda, ingliz tilini o'rganishga bag'ishlangan audio bloglarga e'tibor berish kerak.

Podkastlardan foydalanishning asosiy ikkita usuli quyidagilardir: ma'lumotni tinglash va dars vaqtida va darsdan tashqarida shaxsiy mahsulotni yaratish [2].

Dars jarayonida o'quv podkastlardan foydalanish bir qator uslubiy muammolarni hal qilish imkonini beradi, jumladan: nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish va chet tilidagi nutqni tinglash orqali tushunish qobiliyati, eshittirish talaffuz malakalarini shakllantirish va takomillashtirish, leksik lug'atni kengaytirish va boyitish, grammatik ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish, og'zaki nutq va yozish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Podkastlar asosan texnik va didaktik xususiyatlarga asoslanadi, bular quyidagilar:

1. Autentiklik. Podkastlar til o'rganish jarayonini sezilarli darajada boyitishi mumkin, chunki ular asosan autentik materialni taqdim yetadi. Podkastlar asl til materiallari bo'lganligi sababli, ular real hayotdagi nutq va muloqotlarni

aks yettiradi. Bu, talabalar uchun tilning tabiiy va amaliy kontekstini tushunish imkoniyatini beradi, chunki ular kundalik hayotda ishlatiladigan soʻzlar, iboralar va talaffuzlarni oʻrganadilar. Shuningdek, Podkastlar koʻplab turlar va dialektlarda mavjud boʻlib, talabalar turli madaniyatlar va talaffuzlarni oʻrganish imkoniyatiga yega boʻladilar. Bu, til oʻrganish jarayonini yanada rang-barang va qiziqarli qiladi. Talabalar podkastlar orqali turli talaffuz va aktsentlarni eshitishlari mumkin. Bu, tilni mukammal tushunish va ravon gapirish uchun muhim boʻlgan talaffuz koʻnikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

2. Dolzarblilik. Podkastlar dolzarbligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi, chunki podkastlar hozirgi zamon texnologiyalari va kommunikatsiya uslublariga mos keladi. Internet orqali osongina kirish mumkin boʻlgan bu platformalar har qanday inson uchun qulay va samarali til oʻrganish vositasidir.

3. Koʻp qirralilik: Podkastlar turli mavzularda mavjud boʻlib, talabalar oʻz qiziqishlariga mos ravishda maxsus podkastlarni tanlab, oʻrganishlari mumkin. Bu, ularning oʻrganish jarayonini yanada individualizatsiya qiladi va motivatsiyani oshiradi. Podkast tizimi koʻp funksiyali boʻlib, uning yordami bilan chet tillarini oʻrgatishda nutq faoliyatining bir nechta turlarini rivojlantirish mumkin. Tinglash tushunish bilan bir qatorda ogʻzaki va yozma muloqot koʻnikmalarini oshirish muhim ahamiyatga ega, bundan tashqari, podkastlar tilning xilma-xilligi va oʻrganilayotgan til madaniyati haqida maʼlumot beradi.

4. Yangiliklik: Podkastlar koʻpincha soha yangiliklarini, dolzarb mavzularni va mutaxassislarining fikrlarini taqdim yetadi. Bu, talabalar uchun sohaning yangiliklarini doimiy ravishda kuzatib borish va bilimlarni yangilab turish imkoniyatini beradi.

5. Koʻnikmalarni rivojlantirish: Podkastlar orqali talabalar yeshitish va tushunish koʻnikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Ular suhbatlarda va maʼruzalar orqali tilni amaliy ravishda oʻrganadilar, bu yesa til oʻrganish jarayonini yanada samarali qiladi.

6. Moslashuvchanlik: Podkastlarni istalgan vaqtda tinglash imkoniyati mavjud, bu yesa talabalar uchun oʻrganish vaqtini oʻzlariga mos ravishda rejalashtirish imkoniyatini beradi. Bu, til oʻrganish jarayonini yanada moslashuvchan va samarali qiladi.

7. Global Yerishuv: Podkastlar dunyoning turli burchaklarida mavjud boʻlib, talabalar turli madaniyatlar va tillar bilan tanishishlari mumkin. Bu, ularning til va madaniyatlar haqidagi bilimlarini kengaytiradi.

8. Qiziqarli taʼlim usuli: Podkastlar koʻpincha qiziqarli va interaktiv formatda taqdim yetiladi, bu yesa oʻrganish jarayonini yanada jozibador va qiziqarli qiladi.

9. Mediasavodxonlik. Podkastlardan foydalanishning texnik shartlari juda oddiy, faqat kerakli podkastni MP3 formatida kompyuteringizga yoki boshqa media qurilmangizga yuklab olishingiz kifoya.



10. Produktivlik. Ishlab chiqarilgan materiallardan foydalanish, chet tili darslarida podkastlar bilan ishlash, shaxsiy podkastlarni yaratish va keyinchalik tarqatish.

Xulosa. Umuman olganda, podkastlar dolzarbliligi va ahamiyatligi bilan ajralib turadi. Ularning innovatsion yondashuvlari ko'p qirraliligi va ularning keng imkoniyatlari bilan bog'liq. Pedagogik va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida podkastlardan foydalanishning bir qancha afzalliklarini ko'rib chiqdik va bularga quyidagilarni misol qilish mumkin. Talabalar chet tillarini o'rganishlarida birinchi navbatda autentik materiallar bilan ta'minlanadilar, turli talaffuz va aktsentni o'rganadilar, podkastlar suhbat va dialoglar bilan boyitilganligi tufayli, talabalar chet tillarni ushbu suhbat va dialoglar orqali o'rganadilar. Shuningdek, podkastlar qiziqarli mazmun va motivatsiyaga ega, ular orqali talabalarning eshitish ko'nikmalarini rivojlantirish, tili o'rganilayotgan mamlakatning madaniyatini o'rgatish imkoniyati mavjud. Xulosa qilib aytganda, podkastlardan foydalanish chet tillarini o'rganishda talabalarning qiziqishlarini oshirishi, til ko'nikmalarini rivojlantirish va tilni amaliy kontekstda o'rganishni samarali qiladi.

Adabiyotlar:

1. Ковалева Т.А. Дидактический потенциал подкастов и методика их использования в дистанционной форме обучения иностранному языку / Иностранные языки в дистанционном обучении: материалы III Международной науч.-практ. конф. Пермь, 23–25 апреля 2009 г. Пермь: Изд-во Перм. гос. техн. ун-та, 2009. – С. 48 – 55.
2. Полат Е.С. Интернет на уроках иностранного языка // Иностранные языки в школе. – 2001. – №2. С. 14 – 15.
3. Салин Б.С. Некоторые аспекты использования подкастов в обучении английскому языку // Современные проблемы науки и образования. – 2010. – №4. – С. 91 – 93.
4. Kambarova D.I Podcasts as an innovative means of teaching English in high educational institutions. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. – Philadelphia, USA. – 2022, Issue: 03 Volume: 107

РЕЗИОМЕ

Podkastlar talabalarning faolligini oshiradigan va ularning mustaqil ta'limini rivojlantirishga hissa qo'shadigan zamonaviy interaktiv texnologiyalardan biridir. Podkastlar dolzarbliligi, yangililigi, autentikligi va ahamiyatligi bilan ajralib turadi. Ularning innovatsion yondashuvlari ko'p qirraliligi va ularning keng imkoniyatlari bilan bog'liq. Podkastlar talabalarning kommunikativ kompetensiyasini su bilan birga, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

РЕЗИОМЕ

Подкасты – одна из современных интерактивных технологий, повышающих активность учащихся и способствующих развитию их самостоятельного образования. Подкасты характеризуются актуальностью, свежестью, аутентичностью и актуальностью. Их инновационный подход обусловлен их универсальностью и широким спектром возможностей. Подкасты развивают коммуникативную компетентность учащихся и навыки самостоятельного обучения.

SUMMARY

Podcasts are one of the modern interactive technologies that increase student activity and contribute to the development of their independent education. Podcasts are characterized by actuality, novelty, authenticity and relevance. Their innovative approach stems from their versatility and wide range of capabilities. Podcasts develop students' communicative competence and independent learning skills.